

BOLALARDA O'PKA SILI KASALLIGI KECHISHINI BAXOLASH

*Qurbanova Gulnoza Abdiraim qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tibbiyot fanlar kafedrasи o'qituvchisi
e-mail: gurbanovagulnoza64@gmail.com*

Muammoning dolzarbliyi: Bolalarda sil infektsiyasi kasalligida buyrak patologiyasi o'chrashi bolalar nefrologiyasi va ftiziatriyada keng tarqalgan muammo hisoblanadi.

Yangi aniqlangan barcha sil kasalligi bilan og'regan bemorlarning asosiy guruhini Sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish vazirligida tibbiy yordam oladigan bemorlar - 80,9%, jazoni ijro etish muassasalarida bemorlar - 12%, boshpanasizlar - 1,8%, chet el fuqarolari - 1,9%, boshqalar - 3,4% tashkil qilmoqda.

Silning o'pkadan boshqa a'zolarning kasallanish darajasi 2010 yilda Rossiya da 100 ming aholiga 2,5 ni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda Sankt-Peterburgda 100 ming aholiga 1,3 ni tashkil etdi. 2018 yilda o'lim darajasi 100 ming aholiga 14,2 ni tashkil qilgan.

Dunyoda sil bilan kasallanganlarning eng ko'p soni Hindiston (3 million) va Xitoyda (1,8 million) to'plangan. Bundan tashqari, dunyodagi barcha sil bilan kasallanganlarning yarmi beshta davlatda yashaydi: Hindiston, Xitoy, Nigeriya, Bangladesh va Indoneziya.

Bizning mamlakatimizda 1961 yildan boshlab chaqaloqlarga, bolalarga, o'smirlar va katta yoshdagagi odamlarga BSJ vakcinasini teri orasiga yuborish usuli qo'llaniladi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan quruq BSJ vakcini odamlarning yoshidan qat'iy nazar bir xil dozada, ya'ni suyultirilgan vaksinadan 0,1 ml miqdorda yuboriladi.

Tadqiqot maqsadi: Bolalarda o'pka sili kasalligi kechishini baxolashdan iborat.

Tekshirish usullari va materiallari: Oldimizga qo'yilgan maqsadga erishish hamda vazifalarni bajarish uchun bolalarda o'pka sili bilan kasallangan 30 nafar bemorlardan olingan autopsiya materiallari o'r ganildi.(1-jadvalga qarang)

Tekshiruv Respublika ftizatriya markazi va Surhondaryo viloyat sil kasalliklar despanserida 2020-2023 yil qabul qilingan 15 nafar bo'lgan bemor bolalar ustida olib borildi. Turli omillar ta'sirida kasallangan bemorlarning klinik va labarator o'zgarishlari toliq o'r ganildi.

Tadqiqot natijalari: Yangi tug'ilgan chaqaloqlar va kichik yoshdagagi bolalarning nafas a'zolari bir qator xususiyatlarga ega. Ularning burun sohasi yuz tuzilishiga nisbatan kichik bo'ladi.

Kichik yoshdagagi bolalarning sil mikrobakteriyalari bilan zararlanishi kasal bo'lish bilan barobardir. Birinchi marta sil mikrobiyu yuqtirgan bolalarda kasallikni aniqlash

juda mushkul. Ular oddiy shamollash — ORVI yoki boshqa kasalliklar «niqobi» ostida kechishi mumkin (bronxit, laringit, pnevmoniya).

Shifoxonaga o‘zi murojat qilgan bemorlarda o‘pka sili profilaktik yo‘l bilan topilgan kasallarga qaraganda 6 marta ko‘p surunkali tarzda kechadi. Bu yoshdagi o‘smirlarda sil kasalligining o‘ziga xos tomonlaridan biri shundan iboratki, ularning qariyb yarmida (43,3 %) o‘pka to‘qimasi yemiriladi va kovak hosil bo‘ladi, uchdan biri (30,7 %) tashqi muhitga sil mikobakteriyalarini chiqarib turadi. O‘g‘il bolalarga qaraganda qizlar qariyb ikki baravar ko‘proq kasallananadilar (62,6 % va 37;4 %). O‘smir qizlar va bolalar o‘rtasidagi tafovut ayniqsa o‘pka silining klinik turida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, silning infiltrativ, disseminatsiyalangan va fibrozkavernoz turi qizlarda bolalarga nisbatan 2,7 marta ko‘p uchradi. Bu tafovutlar silning o‘smirlarda uchraydigan klinik turining umumiy strukturasiga mos keladi va ularning jinsiga bog‘lik bo‘ldi.

Bizning mamlakatimizda emlash va qayta emlash BSJ vaksinasini teri orasiga yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Barcha yangi tug‘ilgan sog‘lom chaqaloqlarga, sil infeksiyasi bilan zararlanmagan bolalar, o‘smirlar va 30 yoshgacha bo‘lgan odamlarga BSJ vaksinasini emlash tavsiya etiladi.

Emlash va qayta emlashga quyidagi holatlarda ruxsat etilmaydi. Sil mikobakteriyalari bilan infeksiyalangan yoki ilgari sil kasalligi bilan og‘rigan shaxslar;

Ilgari silga qarshi dispanser hisobida turgan va tuberkulin sinamasi infeksiyasining viraji bo‘lgan kishilar;

Mantu sinamasi yordamida qo‘yilgan gumonli (papulasiz giperemiya yoki diametri 2—4 mm bo‘lgan papula) yoki musbat natija bergen shaxslar;

Silga qarshi BSJ-1 vaksinasi bilan emlangan joyda operatsiya yoki kuyish natijasida hosil bo‘lgan kelloid chandiqlari bo‘lganlar;

Ilgarigi emlash asoratlari o‘tgan (sovuvq abscess, yaralar, regionar limfa tugunlarining yallig‘lanishi va hokazo) shaxslarga umuman qilinmaydi.

Xulosa: Shunday qilib, nafas yo‘llari yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda va kichik yoshdagи bolalarda qator xususiyatlarga ega, ular qon va limfa tomirlariga boy, tashqi muhitning turli patologik omillariga, ayniqsa yuqumli agentlar, jumladan, sil kasalligi mikobakteriyalariga juda sezgir bo‘ladi.